

Ibragimova Moxina Tursunboy qizi

Surxondaryo viloyat bolalar kutubxonasi xodimi

Annotatsiya: Ushbu maqolada kutubxonashunoslik, bibliografiya, bibliografshunoslik, axborotshunoslik, hujjatshunoslik va boshqa axborot predmetlarining o'zaro aloqadorligi ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Kutubxona faoliyati, bibliografik jarayonlar va axborot resurslari bilan ishlashning umumiy hamda farqli tomonlari yoritiladi. Shuningdek, mazkur fanlarning bir-birini to'ldiruvchi xususiyatlari, axborotni yig'ish, saqlash, tizimlashtirish, qidirish va foydalanuvchiga yetkazish jarayonlaridagi integratsion roli ochib beriladi. Tadqiqot natijasida kutubxonashunoslik va unga yaqin axborot predmetlari o'rtasidagi uzviy bog'liqlik zamonaviy axborot-kutubxona tizimini rivojlantirishning muhim ilmiy asosi ekanligi asoslanadi.

Kalit so'zlar: kutubxonashunoslik, bibliografiya, bibliografshunoslik, axborotshunoslik, hujjatshunoslik, axborot resurslari, kataloglashtirish, tasniflash, bibliografik axborot, kutubxona xizmati, integratsiya.

Аннотация: В данной статье рассматривается взаимосвязь библиотековедения, библиотековедения-библиографии и других информационных дисциплин. Анализируются их общие и отличительные особенности, а также роль в процессах сбора, хранения, систематизации, поиска и предоставления информации пользователям. Особое внимание уделяется интеграции библиотековедения с библиографией, информатикой, документоведением и другими смежными областями. В результате исследования обосновано, что взаимосвязь этих дисциплин является важной научной основой развития современной библиотечно-информационной деятельности, повышения качества обслуживания пользователей и формирования информационной культуры общества.

Ключевые слова: библиотековедение, библиография, библиографоведение, информатика, документоведение, информационные

ресурсы, каталогизация, классификация, библиографическая информация, библиотечное обслуживание, интеграция.

Abstract: This article examines the interrelationship between library science, library science-bibliography, and other information-related disciplines. Their common and distinctive features are analyzed, as well as their role in the processes of collecting, preserving, systematizing, searching, and delivering information to users. Special attention is paid to the integration of library science with bibliography, information science, document studies, and other related fields. The study substantiates that the interconnection of these disciplines serves as an important scientific foundation for the development of modern library and information activities, the improvement of user services, and the formation of information culture in society.

Keywords: library science, bibliography, bibliographical studies, information science, document studies, information resources, cataloguing, classification, bibliographic information, library services, integration.

Bugungi axborotlashgan jamiyat sharoitida ilmiy bilimlar tizimi tobora murakkablashib, fanlararo integratsiya kuchayib bormoqda. Ayniqsa, axborot bilan bog'liq fan va predmetlar o'rtasidagi uzviy aloqadorlik jamiyatning intellektual taraqqiyoti, ta'lim tizimining rivojlanishi hamda ilmiy axborot almashinuvining samaradorligi uchun alohida ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan kutubxonashunoslik, bibliografiya, bibliografshunoslik, axborotshunoslik, hujjatshunoslik va boshqa axborotga oid fanlar o'zaro bog'liq holda rivojlanayotgan muhim ilmiy yo'nalishlar hisoblanadi. Kutubxona faoliyati uzoq tarixiy taraqqiyot jarayonida oddiy kitob saqlash va berish muassasasidan murakkab axborot-kommunikatsion tizimga aylangan. Hozirgi zamon kutubxonasi nafaqat hujjatlarni yig'adi va saqlaydi, balki ularni tizimlashtiradi, bibliografik jihatdan tavsiflaydi, foydalanuvchining axborot ehtiyojini aniqlaydi, turli axborot manbalarini qidiradi va kerakli ma'lumotni o'z vaqtida yetkazib beradi. Shu bois kutubxonashunoslikni bibliografiya yoki axborotshunoslikdan ajratib o'rganish yetarli bo'lmaydi. Chunki bu fanlarning barchasi yagona maqsad — axborotni samarali boshqarish va undan foydalanuvchi ehtiyojini qondirishga qaratilgan. Mavzuning dolzarbligini shundaki, zamonaviy kutubxona-amaliyotida elektron kataloglar, ma'lumotlar bazalari, bibliografik ko'rsatkichlar, raqamli arxivlar va axborot-qidiruv tizimlari tobora keng qo'llanilmoqda. Bu esa kutubxonashunoslik bilan bog'liq barcha axborot predmetlarining o'zaro aloqasini chuqur o'rganishni talab qiladi. Fanlararo uzviylikni anglash kutubxona xizmatlarini modernizatsiya qilish, bibliografik ish sifatini oshirish,

foydalanuvchilarning axborot madaniyatini shakllantirish va ilmiy tadqiqotlarni axborot bilan ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Zamonaviy davrda axborot hajmi mislsiz darajada ortib borayotgan bir paytda axborotni tartibga solish, tanlash, tavsiflash, tizimlashtirish va iste'molchiga yetkazish masalalari dolzarb ilmiy-amaliy muammoga aylanmoqda. Bunday sharoitda kutubxonashunoslikning bibliografiya va boshqa axborot predmetlari bilan integratsiyasi faqat nazariy ehtiyoj emas, balki amaliy zarurat hamdir. Chunki foydalanuvchi kutubxonaga faqat kitob olish uchun emas, balki aniq, ishonchli va tezkor axborot olish uchun murojaat qiladi. Ushbu ehtiyojni qondirish esa bir necha fanlar yutuqlaridan kompleks foydalanishni talab etadi. Masalan, hujjatni kutubxona fondiga qabul qilish kutubxonashunoslik doirasiga kirsam, uning bibliografik tavsifi bibliografiya bilan, mazmuniy tahlili axborotshunoslik bilan, hujjatning shakli va funksional tabiatini o'rganish esa hujjatshunoslik bilan bog'liqdir. Demak, har bir axborot predmeti umumiy tizimning bir bo'g'ini bo'lib, ular birgalikda kutubxona-axborot faoliyatining mukammal mexanizmini hosil qiladi.

Mazkur maqolaning maqsadi kutubxonashunoslik, bibliografiya va boshqa axborot predmetlarining o'zaro aloqadorligini ilmiy asosda tahlil qilish, ularning umumiy va xususiy jihatlarini yoritish hamda zamonaviy axborot-kutubxona faoliyatidagi integratsion ahamiyatini ochib berishdan iborat. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalar belgilandi. Kutubxonashunoslikning mazmun-mohiyatini ochib berish, bibliografiya va bibliografshunoslikning vazifalarini tahlil qilish, axborotshunoslik va hujjatshunoslikning kutubxona faoliyatidagi o'rnini yoritish, mazkur predmetlarning o'zaro umumiy nuqtalari va farqlarini aniqlash hamda ularning integratsiyasi asosida kutubxona xizmatlarini takomillashtirish bo'yicha xulosalar chiqarish. Tadqiqot davomida tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, umumlashtirish, tasniflash, tarixiy va mantiqiy tahlil usullaridan foydalanildi. Kutubxonashunoslik, bibliografiya, axborotshunoslik va hujjatshunoslikka oid ilmiy-nazariy manbalar o'rganilib, ularning o'zaro aloqadorlik jihatlari tahlil qilindi. Shuningdek, kutubxona-amaliyotida mavjud bibliografik va axborot-qidiruv jarayonlari asosida umumiy ilmiy xulosalar shakllantirildi.

Kutubxonashunoslikning mohiyati va vazifalari

Kutubxonashunoslik kutubxona ishining nazariyasi, tarixi, metodologiyasi va amaliyotini o'rganuvchi fan bo'lib, uning asosiy vazifasi kutubxona faoliyatining qonuniyatlarini aniqlash, kutubxona fondlarini shakllantirish, foydalanuvchilarga

xizmat ko'rsatish, kataloglar tuzish, ma'lumot-bibliografiya apparatini tashkil etish va axborot resurslaridan samarali foydalanishni ta'minlashdan iborat. Bu fan kutubxonani ijtimoiy va axborot instituti sifatida o'rganadi. Kutubxonashunoslikning markazida hujjat va foydalanuvchi o'rtasidagi vositachilik jarayoni turadi. Aynan shu nuqtada u bibliografiya, axborotshunoslik va boshqa predmetlar bilan tutashadi. Chunki kutubxona ishida mavjud har bir hujjat bibliografik jihatdan tavsiflanishi, axborot nuqtai nazaridan qayta ishlanishi va foydalanuvchi ehtiyojiga mos holda taqdim etilishi zarur.

Bibliografiya va bibliografshunoslikning o'рни

Bibliografiya hujjatlar to'g'risidagi ma'lumotlarni tartibga solish, ularni tavsiflash, tizimlashtirish va foydalanuvchilarga yetkazish bilan shug'ullanuvchi amaliy faoliyat sohasi hisoblanadi. Bibliografshunoslik esa bibliografik faoliyatning nazariy asoslarini o'rganadi. Bibliografiya kutubxona tizimining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, u kitoblar, maqolalar, dissertatsiyalar, elektron resurslar va boshqa hujjatlar haqidagi axborotni foydalanuvchi uchun qulay shaklda taqdim etadi. Kutubxonashunoslik bilan bibliografiya o'rtasidagi bog'liqlik nihoyatda uzviydir. Kutubxona fondi qanchalik boy bo'lmasin, agar undagi resurslar bibliografik jihatdan ochib berilmasa, foydalanuvchi uchun ularning amaliy qiymati pasayib ketadi. Kataloglar, kartotekalar, bibliografik ko'rsatkichlar, tavsiya ro'yxatlari va elektron ma'lumotlar bazalari aynan bibliografik faoliyat mahsulidir. Bu esa bibliografiyasiz kutubxona xizmatining to'laqonli bo'lishi mumkin emasligini ko'rsatadi. Bibliografiya kutubxonaga hujjatlar dunyosini tartibga solish vositasini bersa, kutubxonashunoslik bibliografik ishning tashkiliy va metodik asoslarini ta'minlaydi. Demak, ular bir-birini to'ldiruvchi, bir butun tizimning tarkibiy qismlaridir.

Kutubxonashunoslik, bibliografiya va boshqa axborot predmetlarining o'zaro aloqadorligi

№	Fan yoki predmet nomi	Asosiy mazmuni	Kutubxonashunoslik bilan bog'liqligi
1	Kutubxonashunoslik	Kutubxona ishining nazariyasi, tarixi va amaliyotini o'rganadi	Asosiy yo'nalish bo'lib, barcha axborot jarayonlarini birlashtiradi

2	Bibliografiya	Hujjatlar haqida ma'lumot tayyorlash va taqdim etish bilan shug'ullanadi	Kutubxona fondini ochib berish va foydalanuvchiga yetkazishda xizmat qiladi
3	Bibliografshunoslik	Bibliografik faoliyatning nazariy asoslarini o'rganadi	Bibliografik ishlarning ilmiy-uslubiy poydevorini yaratadi
4	Axborotshunoslik	Axborotni izlash, qayta ishlash, saqlash va tarqatishni o'rganadi	Zamonaviy elektron kutubxona va axborot xizmatlarining asosini tashkil etadi
5	Hujjatshunoslik	Hujjatlarning mohiyati, turlari va funksiyalarini o'rganadi	Kutubxona fondini shakllantirish va tavsiflashda muhim ahamiyatga ega
6	Kataloglashtirish	Hujjatlarni tavsiflash va qidiruv tizimiga joylashtirish jarayoni	Kutubxona fondidan foydalanishni yengillashtiradi
7	Tasniflash	Hujjatlarni mazmuniga qarab guruhlarga ajratadi	Axborotni tartibli joylashtirish va tezkor qidiruvni таъминлайди
8	Axborot texnologiyalari	Elektron resurslar, ma'lumotlar bazasi va raqamli xizmatlarni yaratadi	Kutubxona xizmatlarini zamonaviy bosqichga olib chiqadi

Jadvaldan ko'rinadiki, kutubxonashunoslik bibliografiya va boshqa axborot predmetlari bilan uzviy bog'liq bo'lib, ushbu fanlarning integratsiyasi kutubxona faoliyatining ilmiy asoslarini mustahkamlaydi hamda foydalanuvchilarga xizmat ko'rsatish samaradorligini oshiradi.

Kutubxonashunoslik va axborotshunoslik

Axborotshunoslik axborotning yaratilishi, tarqalishi, saqlanishi, izlanishi va iste'mol qilinishi jarayonlarini o'rganadi. Zamonaviy kutubxona faoliyati esa aynan axborot oqimlarini boshqarish bilan chambarchas bog'liq. Bugungi kunda kutubxona kitob ombori emas, balki axborot markazi sifatida faoliyat yuritmoqda. Shu sababli

kutubxonashunoslik va axborotshunoslik o'rtasidagi bog'liqlik tobora kuchayib bormoqda. Kutubxonada foydalanuvchining axborot ehtiyojini aniqlash, tegishli manbalarni izlash, ma'lumotni qayta ishlash, elektron katalog orqali qidiruvni tashkil etish, ma'lumotlar bazasini yuritish va masofaviy xizmat ko'rsatish jarayonlari axborotshunoslik bilan uzviy aloqada amalga oshiriladi. Axborotshunoslik kutubxonaga resurslarni qidirish, indekslash, annotatsiyalash, referatlashtirish va elektron muhitda uzatish kabi zamonaviy usullarni olib kiradi. Shu bilan birga, kutubxonashunoslik axborotshunoslikka foydalanuvchi bilan amaliy ishlash, axborot ehtiyojlarini kutubxona muhiti doirasida qondirish va axborotni ijtimoiy foydaga yo'naltirish tajribasini beradi. Natijada bu ikki yo'nalish integratsiyasi zamonaviy axborot-kutubxona xizmatlarining metodologik asosini tashkil etadi.

Hujjatshunoslik va uning kutubxona faoliyatidagi ahamiyati

Hujjatshunoslik hujjatning mohiyati, funksiyasi, tuzilishi, turlari va hujjat aylanishining qonuniyatlarini o'rganadi. Kutubxona faoliyati esa asosan turli hujjatlar bilan ishlashga asoslanadi. Kitob, jurnal, gazeta, qo'lyozma, elektron resurs, audio-video material va raqamli fayllar kutubxona fondining asosiy birliklari hisoblanadi. Ularning har biri hujjat sifatida ma'lum tavsif va funksiyaga ega. Shu jihatdan hujjatshunoslik kutubxonashunoslik uchun nazariy tayanch vazifasini bajaradi. Hujjatning tashqi shakli, ichki mazmuni, mualliflik xususiyatlari, nashriyot belgilari, axborot sig'imi va saqlash xususiyatlarini bilmasdan turib, uni kutubxona fondiga to'g'ri kiritish, tavsiflash yoki foydalanuvchiga yetkazish mumkin emas. Shuningdek, raqamli hujjatlar paydo bo'lishi bilan hujjatshunoslikning ahamiyati yanada oshdi. Endi kutubxona bosma va elektron hujjatlar bilan bir qatorda multimedia, ma'lumotlar to'plami va raqamli kolleksiyalar bilan ham ishlamoqda.

Bibliografiya, kataloglashtirish va tasniflashning birligi

Kutubxona faoliyatida bibliografiya, kataloglashtirish va tasniflash bir-biridan ajralmas jarayonlardir. Bibliografik tavsif hujjat haqidagi asosiy identifikatsion ma'lumotlarni beradi. Kataloglashtirish ushbu ma'lumotlarni tartibga soladi va qidiruv tizimiga joylashtiradi. Tasniflash esa hujjatlarni mazmuniga ko'ra guruhlariga ajratib, foydalanuvchi uchun qidiruvni yengillashtiradi. Bu uch jarayon kutubxonashunoslikning amaliy asosini tashkil etadi va ayni paytda bibliografiya hamda axborotshunoslikning metodik yondashuvlari bilan chambarchas bog'liqdir. Masalan, elektron katalog yaratishda bibliografik tavsiflash qoidalari, axborot-qidiruv tili, indekslash usullari va foydalanuvchi interfeysini tashkil etish birgalikda

qo'llaniladi. Bu esa turli axborot predmetlarining amaliy integratsiyasini yaqqol namoyon etadi.

Kutubxonashunoslik va boshqa axborot predmetlari

Kutubxonashunoslik bibliografiya, bibliografshunoslik, axborotshunoslik va hujjatshunoslikdan tashqari arxivshunoslik, kitobshunoslik, informatika, kommunikatsiya nazariyasi va media savodxonlik kabi yo'nalishlar bilan ham bog'liqdir. Arxivshunoslik hujjatlarni uzoq muddatli saqlash va tizimlashtirish masalalarini o'rganadi, bu esa kutubxona fondlarining noyob qismini boshqarishda muhim ahamiyatga ega. Kitobshunoslik kitobning tarixiy, nazariy va madaniy tabiatini o'rganib, kutubxona fondlarining mazmuniy tahliliga yordam beradi. Informatika esa avtomatlashtirilgan kutubxona tizimlari, elektron resurslar va raqamli xizmatlar uchun texnologik poydevor yaratadi. Shuningdek, media savodxonlik va kommunikatsiya nazariyasi foydalanuvchilarning axborotni tanlash, tahlil qilish va tanqidiy baholash ko'nikmalarini shakllantirish bilan bog'liq bo'lib, zamonaviy kutubxonalarning ta'limiy va ma'rifiy missiyasini kengaytiradi. Demak, kutubxonashunoslik boshqa axborot predmetlari bilan birgalikda keng qamrovli axborot madaniyatini shakllantiruvchi ilmiy-amaliy tizimni tashkil qiladi.

O'zaro aloqadorlikning amaliy ahamiyati

Mazkur predmetlarning o'zaro aloqadorligi kutubxona-amaliyotida bir nechta muhim natijalarni beradi. Avvalo, bu integratsiya foydalanuvchining axborot ehtiyojini tezroq va aniqroq qondirish imkonini yaratadi. Ikkinchidan, bibliografik va axborot-qidiruv vositalari takomillashadi. Uchinchidan, hujjatlar bilan ishlash sifati oshadi, fondlarni shakllantirish va saqlash jarayoni ilmiy asosga ega bo'ladi. To'rtinchidan, zamonaviy elektron kutubxona va raqamli platformalarni yaratish uchun mustahkam metodologik asos yuzaga keladi. Masalan, talabning ma'lum mavzu bo'yicha ilmiy izlanish olib borishi jarayonida kutubxona unga kerakli manbalarni fond orqali taqdim etadi, bibliografik ko'rsatkichlar yordamida tegishli manbalarni topadi, elektron kataloglar orqali qidiruvni osonlashtiradi, axborotshunoslik yondashuvi bilan mavzuga oid ma'lumotlar bazasini ko'rsatadi va hujjatshunoslik nuqtai nazaridan manbaning shakliy xususiyatlarini aniqlashga yordam beradi. Bu esa barcha predmetlar birgalikda ishlaganda samaradorlik yuqori bo'lishini isbotlaydi.

Kutubxonashunoslik, bibliografiya va boshqa axborot predmetlari o'rtasidagi bog'liqlik tasodifiy emas, balki funksional va metodologik zarurat hisoblanadi.

Ularning barchasi axborotni tartibga solish, foydalanuvchiga yetkazish va undan samarali foydalanishni tashkil etishga xizmat qiladi. Farqi shundaki, har bir predmet ushbu umumiy jarayonning ma'lum bir tomonini chuqurroq o'rganadi. Kutubxonashunoslik kutubxona tizimini butunligicha ko'rsa, bibliografiya hujjatlar haqidagi axborotni ochib beradi, axborotshunoslik axborot oqimlarini boshqaradi, hujjatshunoslik esa hujjatning tabiatini o'rganadi. Bu integratsiya zamonaviy kutubxona modelining nazariy asosini tashkil etadi. Ayniqsa, elektron axborot resurslari kengayib borayotgan bir paytda mazkur fanlararo bog'liqlik yanada dolzarb tus olmoqda. Demak, kutubxonashunoslikni rivojlantirish va kutubxona xizmatlarini modernizatsiya qilish uchun bibliografiya va boshqa axborot predmetlari bilan uzviy hamkorlik zarur. Kutubxonashunoslik, bibliografiya, bibliografshunoslik, axborotshunoslik, hujjatshunoslik va boshqa axborot predmetlari o'rtasidagi aloqadorlik zamonaviy axborot-kutubxona faoliyatining muhim ilmiy asosini tashkil etadi. Ularning barchasi axborotni yig'ish, saqlash, tavsiflash, tizimlashtirish, qidirish va foydalanuvchiga yetkazish kabi yagona maqsad yo'lida birlashadi. Mazkur fanlar o'rtasidagi integratsiya kutubxona xizmatlari sifatini oshiradi, bibliografik apparatni takomillashtiradi, elektron resurslardan foydalanishni yengillashtiradi va foydalanuvchilarning axborot madaniyatini shakllantiradi. Shu bois bugungi kunda kutubxonashunoslikni alohida emas, balki unga yaqin axborot predmetlari bilan birgalikda o'rganish va rivojlantirish ilmiy hamda amaliy zarurat hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Berdiyeva Z. Kutubxonashunoslik. – Toshkent, 2013. – 256 b.
2. Axunjanov E. Kutubxonashunoslik, arxivshunoslik, kitobshunoslik nazariyasi va tarixi. – Toshkent: Tafakkur-Bo'stoni, 2011. – 304 b.
3. Qosimova O., Yesimov T. Umumiy kutubxonashunoslik. – Toshkent, 2006. – 224 b.
4. Kormilisin A., Rasulov M., Davlatov S. Kutubxonachilik ishining nazariyasi va tarixi. – Toshkent, 2014. – 280 b.
5. Chubaryan O. S. Obshcheye bibliotekovedeniye. – Moskva, 1960. – 202 s.
6. Kartashov N. S., Skvortsov V. V. Obshcheye bibliotekovedeniye. – Moskva, 1996. – 255 s.
7. Serov V. V. Bibliotekovedeniye. – Moskva, 1972. – 271 s.
8. O'zbekiston Respublikasining "Axborot-kutubxona faoliyati to'g'risida"gi Qonuni. – 2011.
9. Bibliografiya va axborot faoliyatiga oid ilmiy maqolalar to'plami.